

OILADA E'TIQOD TARBIYASI VA UNI PEDOGAGIK VA PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Xamroyeva Mahfuza Baxtiyorovna

Buxoro Osiyo Xalqaro Universiteti MM3-PP-23-guruh 1-kurs magistranti

Annotatsiya: *Maqolada oilada farzand tarbiyasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ochib berilib, farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim o'rin tutadi. Bola ota-ona tomonidan qo'pol, dag'al so'zlar eshitib, kaltak yeb katta bo'lsa, bu uning tabiatiga salbiy ta'sir qiladi. Bu esa o'z navbatida oiladagi nosog'lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan "ma'naviy kasal" insonlar shakllanadi.*

Kalit so'zlar: *ota-onaning muomalasi, qo'pol-dag'al so'zlar, oiladagi nosog'lom muhit, "ma'naviy kasal", odobli bo'lib ulg'ayish, mahalla-kuy.*

Oila tarbiyasi, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ota-onalar yoki shaxs kamoloti uchun mas'ul shaxslar tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlama yetuk, sog'lom etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon. Ota-onalar o'zlarining ijtimoiy burchlarini bajarar ekanlar, farzandlarida mehnatga, uni tashkil etuvchilarga nisbatan mehr-muhabbat, hurmat tuyg'usini shakllantirish, ularni ijtimoiy-foydali mehnatga tayyorlash, turli ko'rinishdagi munosabatlarni uyushtirish vaqtida tartib-intizomga amal qilish, ijtimoiy me'yorlarga og'ishmay rioya etish, sog'lom turmush tarzini yaratish, o'z shaxsiy hayotlari mazmunini belgilashda maqsad, so'z va faoliyat birligini ta'minlash borasida har tomonlama ijobiy ibrat namunasi ko'rsatadi.

Oila tarbiyasida obyektiv va subyektiv omillarning roli katta. Oilaning moddiy ta'minoti va farovonlik (maishiy turmush) darajasi, oila budjetining mavjud holati, undan oqilona foydalanish borasidagi tajriba, sog'lom ruhiy muhitning barqarorligi va hokozolar obyektiv omillar sanalsa, oiladagi shaxslararo munosabatlar mazmuni, oila a'zolarining fiziologik, psixologik, madaniy jihatdan komillik hamda ma'lumot darajasi, ularning qiziqish va ehtiyojlari o'rtasidagi mutanosiblik, oilaviy hayotni tartibga solish borasidagi o'zaro yordam, hamkorlik, birlik tamoyillariga tayanish kabilar subyektiv omillar sirasiga kiradi.

Kishilik jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti tarixidan ma'lumki, bola shaxsining kamoloti oilada shakllanadi. Oila — jamiyat hayotining kichik bir debochasi bo'lib, har tomonlama sog'lom, barkamol avlodni voyaga yetkazish uchun ma'sul bo'lgan g'oyat muhim tarbiya o'chog'dir.

O'zbek oilasi a'zolarining barchasini savodxon, ma'lumotli deb atasak, xato qilmagan bo'lamiz, ana shu imkoniyatlar ta'sirida o'g'il va qizlar bilimli, fikr- mulohazali, topqir, ishbilarmon, aql-zakovati bo'lib voyaga etmoqdalar.

Oilalarning mustahkamligi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, milliy xavfsizligini, uning ravnaqi, taraqqiyotini belgilovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Oilaning ijtimoiy maskan sifatida farzand kamolotida tutgan o'rni, uning o'z qobiliyati va iktidorini namoyon etishiga ta'siri masalalari hamisha dolzarb bo'lib kelgan. Bu mavzu insoniyat tarixida

yashagan ko'plab allomalarning e'tiboridagi muhim muammolardan sanaladi. Oilaviy muhit jamiyat uchun sog'lom fikrdagi avlodni tarbiyalashning asosiy bo'g'ini hisoblansa, ota-ona bilan farzand o'rtasidagi munosabatlarda diniy e'tiqodni tarbiyalash asosiy vositadir.

Dinning mohiyati turlicha izohlansa-da, uning asosida ishonch, e'tiqod tuyg'usi yotadi. Darhaqiqat, din ishonmoq tuyg'usidir. Ishonmoq tuyg'usi insoniyatning eng teran va ruhiy-ma'naviy ehtiyojlaridandir.[1] O'zbek tilining izohli lug'atida din -e'tiqod, ishonch ma'nosida kelib, Ilohiy kuchga, Xudoga ishonishga asoslangan dunyoqarash, tasavvur, urf-odat va marosimlar majmuini bildiradi.[2]

Psixologik nuqtai nazardan tahlil qiladigan bo'lsak, din inson ruhiyatining namoyon bo'lishining o'ziga xos sohasi bo'lib, ijtimoiy guruhlar va shaxslarning ijtimoiy ong (ijtimoiy hayot) shakllaridan biri hisoblanadi. Insonlar ko'p holatda dinga ma'naviy va psixologik, mafkuraviy bo'shliqni to'ldirish, o'zini shu yo'nalishda topish va o'zlarining kundalik muammolarini mustaqil ravishda hal qila olmaydigan paytlarda murojaat qiladilar. Dindorlarning o'zlari dinga bo'lgan ilk moyilliklarini "mo'jiza" bilan, kutilmagan idrok va ma'rifat bilan, Xudo bilan muloqot qilish bilan bog'lashadi.[3]

Agar e'tiqod - shaxs, guruh va ommani jipslashtiruvchi, odamlarni ijtimoiy hayotning faol a'zosiga aylantiruvchi omil bo'lsa, diniy e'tiqod ilohiy kuchlarga ishonuvchi kuchlar ongida bo'lgan diniy tasavvurlar, obrazlar majmuasidir. Diniy e'tiqod diniy ongning asosiy elementi sifatida diniy aqidalarga, yo'l-yo'riq va ko'rsatmalarga shak-shubhasiz ishonish xamda ularga amal qilishdir. Demak, har qanday diniy ongning negizida diniy e'tiqod yotadi.

Ma'lumki, diniy ong - dindor kishilar ongi bo'lib, diniy ishonch-e'tiqod mustahkamligining muhim omilidir. Biroq har qanday e'tiqod ham diniy e'tiqod bo'lavermasligini ta'kidlash joiz. Zero, diniy iymon, e'tiqod inson psixologiyasida alohida barqaror ishonchning mavjud bo'lishini taqozo etadi. F.Abdurahmonov va Z.Abdurahmonovalar diniy ong elementlariga: diniy psixologiya; diniy kechinma; diniy hissiyot; muhabbat, qo'rqinch, shodlik hamda diniy mafkura; dogmatika; apologetika; diniy normalar larni kiritadi.[4]

Aytish joizki, ong darajasining yuqoriligi e'tiqod o'rtasidagi iroda va ishonchning tafakkur bilan bog'liq ehtiyojmandligini belgilaydi. Bu esa oila, mahalla, tarbiya maskanlari orqali yoshlarga singdiriladi hamda ularning o'zaro uyg'unligini talab etadi. Shuningdek, jamiyatimizning ma'naviy negizlarini yanada rivojlantirish, azaliy milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va mustahkamlash, jamiyatimizda yuksak ma'naviy muhitni keng qaror toptirish, o'zbek milliy mentalitetiga mutlaqo yot bo'lgan va kuchayib borayotgan turli xil zararli ta'sirlarga qarshi turishda oilaning o'rni va ahamiyatini oshirishni taqozo etadi.

Demak, din ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy sohalar, millatlararo munosabatlar bilan birga oilada ham muhim rol o'ynaydi. Zero, din odamlar hayot tarzi, fikr va xatti-harakatlarini sanksiyalashtiradi, ularga olijanoblik baxsh etadi yoki gunoh sifatida qoralaydi. Shu tariqa, din oilaga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

Umuman olganda, inson hayotining tom va mukammal ma'nosi oilada mujassamlanadi. Jamiyatimizda oila tushunchasi ulug'lanadi va er-xotinlikning muqaddasligi himoya qilinadi. Xususan, oilani mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash, jamiyatda eng ibratli oilaviy an'analarni saqlab qolish hamda targ'ibot qilish masalalari bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbeklarda oilaviy munosabatlar islomiy va milliy qadriyatlarning chuqur tarixiy ildizlariga borib taqaladi. Islom dinida oilaga katta e'tibor berilib, uni qanday tashkil qilish, oila a'zolarining huquqlari, farzandlar tarbiyasi, oilada chiqadigan kelishmovchiliklarni muolaja qilish, umuman oilaviy hayotning barcha masalalariga javob topish mumkin. O'z turmush rafiqasi bilan qanday muomala qilish, ota-onalar va farzandlar bilan qanday munosabat qilish, oila a'zolariga nisbatan hurmat-ehtirom zohir etish kabi oilaviy turmushning va er-xotin munosabatlarining barcha tomonlari islom dinining asosiy manbalari hisoblangan Qur'oni karim, hadislar va shar'iy qonunlarda yoritilgan.

Alloh taolo Qur'oni karimda marhamat qiladiki: "Uning alomatlaridan (yana biri) - sizlar (nafsi qondirish jihatidan) taskin topishingiz uchun o'zlaringizdan juftlar yaratgani va o'rtangizda inoqlik va mehribonlik paydo qilganidir. Albatta, bunda tafakkur qiladigan kishilar uchun alomatlar bordir" ("Rum" surasi, 21-oyat). Qur'oni karimda oiladagi er bilan xotinning o'rni belgilab berilgan bo'lib, erkak kishining mas'uliyati alohida qayd etilgan. Ya'ni, erning o'z xotini oldida ham ijtimoiy, ham jismoniy, ham moliyaviy burchi mavjud. Qur'onda erga oila boshlig'i sifatida muayyan vazifalar yuklatilgan bo'lib, islom dini o'z ayollariga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lgan erkaklarni insonlarning eng yaxshilari qatoriga qo'shadi. Umuman, Qur'ondan er-xotin yoxud oilaviy munosabatlarga xos oyatlarni ko'plab keltirish mumkin.[5]

Ahloq kishilarning hulq-atvor normalari va qoidalarini, ularning o'z-o'ziga boshqa kishilarga, mehnatga, jamiyatga munosabati kabi ahloqiy tushunchalarni o'z ichiga oluvchi ijtimoiy ongning shakllaridan biridir. Ahloq tarihiy hususiyatga ega, chunki u kishilik jamiyatida avlolar tomonidan to'plangan ahloqiy tajribalar va munosabatlarni aks ettiradi. Ahloq ilmiy yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi muammolar haqida bahs yuritib, insonlarning kamolatga erishish yo'lini yoritib boradi. Har bir inson bir olam bo'lgani kabi uning ahloq odobi ham juda murakkab olam desak yanglishmaymiz. Chunki shahsning ichki va tashqi olamini o'rganish, bilish, tahlil qilish G'oyatda murakkab, bu ruhiyat bilan bog'liq holatdir. Ahloqli, odobli komil insonda odamiylikning eng yaxshi hislatlari: mehr-muhabbat, rahm-shavqat, adolatu-diyonat, hayoyu-iffat, imon-e'tiqod kabilar mujassam bo'ladi, ayni paytda shu hislatlarning aksi-beburd, ahloq siz kimsalar fe'lida ko'rinadi. Har bir halqning nufu'zi va obro'-shuhrati kishilarning ahloq-odobi, yaxshi hislat fazilatlarini bilan belgilanadi.

Qadimgi yunon faylasuflari Aflotun va Arastu bola tarbiyasini jamiyat o'z ihtiyoriga olishi, tarbiya jarayonidagi barcha zarur ishlarni davlat bajarishi lozim degan G'oyani ilgari surgan edilar. Ular o'z fikrlarini farzand tarbiyasi jamiyat ma'nfaatlari bilan bog'liq deb isbotlamoqchi bo'lganlar. SHunga ko'ra bola tarbiyasi bilan asosan davlat shug'ullanishi kerak, degan G'oya ilgari surilgan. Ammo, sharq mutafakkirlari bola tarbiyasi bilan asosan

ota-ona shug'ullanishi kerak, degan hulosaga kelganlar. Bu bilan ular oilaviy tarbiyaning roliga katta e'tibor berganlar.

Eramizdan avvalgi 528-529 yillar orasida buyuk mutafakkir Zardusht tomonidanyaratilgan "Avesto" kitobida ham ta'lim-tarbiyaga, ahloq-odobga oid qator G'oya va qarashlarni ko'rish mumkin. "Avesto"da ta'kidlanishicha, tarbiya hayotning tayanchi, shu boisdan har bir yoshni yahshi o'q ish va yozishga o'rgatish lozim. Uni yosh paytidanoq mehnat qilib, mehnatning tagi rohat ekanligini anglatish uchun daraht ko'chati o'tkazishga, uy-ro'zg'or g'urollari yasash, erga ishlov berish va chorva bilan shug'ullanishga o'rgatilishi shart. Zotan uning fikricha yahshi va ezgu ishlar yaratish uchun kishi mehnat qilishi zarur, o'z qo'llari bilan moddiy noz-ne'matlar yaratmas ekan, u yashash lazzatini ham his qilmaydi, hayotning qadriga ham etmaydi.

U yuq oridagi fikrni davom ettirib, "Inson nafaqat mehnati tufayli o'zini va oilasini bog' adi, balki unda erga va yurtga bo'lgan muhabbati ham paydo bo'ladi. Zotan har bir inson o'zi o'sib Qulg'aygan zaminni, mamlakatni eng yazshi va go'zal mamlakat deb tushunmog'i kerak". Uning bu fikrlaridan har bir inson faq at o'zining emas balki farzandlarini ham mehnatsevar qilib tarbiyalashi lozim. Chunki mehnatsevar bo'lmasdan turib, o'z erini, o'z Vatanini seva olmasligi tabiiy.

Qur'oni Karim, hadisi Shariflarda oila va oilaviy munosabatlar va oilaviy tarbiyaga oid bir butun izchil qarashlar tizimi mavjud bo'lib, u o'z ichiga oilaning shakllanishi, rivojlanishi va mustahkamlanishiga qaratilgan barcha jihatlarni g'amrab oladi. Bu qarashlar ilohiyot nuqtai nazaridan o'rtacha qo'yilsada ular kishilarning turmush tarzlari, oilaviy munosabatlari talabidan kelib chiq ganligi uchun ham kundalik turmushga muvofiq dir. Islomda oilaviy tarbiyaning o'ziga hos hususiyatlari ham kursatib o'tiladi. Bu hususiyatlar musulmonchilik talablaridan kelib chiqqan bo'lib, insonni ma'naviy-ahloq iy tarbiyalash haqidaga umumiy G'oya bilan bog'liq . Musulmon oilalarida kuyov va kelinning avlod-ajdodlarining kelib chiq ishini o'rganish, jismoniy va ma'naviy poklikga e'tibor berish an'anaga aylangan. Islomiy ma'naviyatda bolani oilada ahloqiy tarbiyalash haqidagi qarashlar insoniylikga, ezgulikga va yahshlikga da'vat etgan uchun ham umuminsoniy mazmunga egadir. Shunga ko'ra, islom musulmonlariga hos bo'lgan diniy qadriyatgina bo'lib qolmasdan, balki umuminsoniy qadriyatdir. Milliy mustaq illik natijasida dinga va diniy qadriyatlarga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi va u oilada bolalarni ahloq iy tarbiyalashning muhim omillaridan biriga aylanib, oilada tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishga yordam bermoqda.

Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya, oila va oilaviy tarbiya haq idagi qarashlari islom mafkurasi va uning qobig'ida shakllangan. Sharq mutafakkirlari ijodida aks etgan umuminsoniy G'oyalar islomiy ma'naviyat bilan hamohangdir.

Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida oila va oilada farzand tarbiyasi masalalariga katta e'tibor berganlar. Muhammad ibn Muso al-Horazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Muhammad qo'shqariy, Yusuf Hos Hojib, Kaykovus, Alisher

Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy kabi mutafakkirlarning qator asarlarida bolalarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalash masalalari o'rtaga qo'yilgan va ularni hal etish yo'llari kursatib berilgan.

Oilada bola tarbiyasi masalasi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy qarashlarida ham mavjuddir. Uning aytishicha, "Ota-onalar ikki hil: tug'ilish otasi va ta'lim berish otasi: birinchisi jismoniy hayot sababli, ikkinchisi ruhiy hayot sababli". Shunga ko'ra ularni o'zviy birlikda olib qarash tarbiya ishida muhim ahamiyatga molikdir. Uning quyidagi so'zlari anchayin ibratlidir: "Zamondan yahshiroq ta'lim beruvchi muallimni, insondan yahshiroq talim oladigan o'quvchini ko'rmadim". Uning bu so'zlaridan bir tomondan ijtimoiy muhitni bola tarbiyasi uchun hal qiluvchi ta'sirini anglasak, ikkinchi tomondan inson shahsi ta'lim natijasida kamolotga erishib borishi mumkinligini sezamiz.

Abu Rayhon Beruniy insonning ahloqiy fazilatlarini, umuman ahloqiy tushunchalarini insonning tabiati bilan bog'laydi. Inson tabiati esa avvalo oilada shakllanadi. Shunga ko'ra bola tarbiyasida ota-ona ta'siri va namunali benihoya kattadir. Masalan u ayollarga nasihat qilib, Abdulla ibn Jafar tilidan shunday deb yozadi: "Rashkdan saqlangin. U taloqning kalitidir. eringga tez-tez tanbeh qilishni senga ta'qiqalayman. Chunki tanbeh nafrat uyg'otadi. o'zingni bezab yurgin. Buning uchun yahshi vosita surmadir. Yana hushbo'y atirlardan foydalangin. Ularning ichida eng yahshisi suvdur". Uning bu fikrlari bevosita oilada farzand tarbiyasiga ta'luqlidir.

Beruniy tan va ruh pokligi masalasini ham o'rtaga tashlaydi. Oilada tozalik, poklik va tartiblilik mavjud ekan, u erda ma'naviy poklik ham bo'ladi. Bu fikrni-tanani toza tutish bilangina cheklab bo'lmaydi, balki ko'p harakat qilishga chaqiradi. Bu harakat mehnat qilish demakdir. Uning qalb va harakat haqidagi fikri insonning tani bilan ruhi pokligini bir butunligi to'g'risidagi G'oya bilan bog'liqdir. Bu narsa bola tarbiyasi jismoniy sog'lomlik bilan ma'naviy-ahloqiy boyluk o'rtasidagi o'zaro muvofiqlik haqidagi bugungi kun talabi bilan hamohangdir. Beruniy ota-onalarga qarata bolaning mo'tadillikda saqlashni tavsiya etadi. Bunga asosan bolani qattiq G'azablanishdan, qo'rqish va hafalikdan, uyqusizlikdan saqlash orqali erishilishini aytib, ularni hohlagan va foydali narsasini topib berishga, sevmagan narsasidan o'zoq lashtirishga harakat qilish kerakligini uqtiriladi. Ota-onaning bolaga turli munosabati turlicha hulqlarni keltirib chiqaradi. Mutafakkir bola-hulq atvorining mo'tadilligi natijasida tan va ruh sog'lomligi kelib chiqishini ham ilmiy asoslab beradi. Beruniy bola tarbiyasida irsiyat muhit va tarbiya ta'sirini birdek muhim ekanligini ta'kidlab o'tgan edi. Beruniy ahloqiy tarbiyaga musulmon dini talablaridan kelib chiqqan holda yondoshadi. Ahloqiylik yahshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash natijasida namoyon bo'ladi va shakllanadi. Uning bu fikri o'z davri uchun yangi va ilmiy bashorat edi.

O'zbek oilalarida islom dinining o'rni katta ekan, oila mustahkamligini ta'minlash, barkamol insonlarni voyaga yetkazishda nafaqat diniy qadriyatlarining roli, balki shaxs diniy yo'nalganligining ham ahamiyati kattadir.

Islom manbalarida bola dunyoga kelmay turiboq, uning kelajagi to'g'risida qayg'urish kerakligi haqida ko'rsatmalar bor. Oilaning zimmasidagi muqaddas burchlarning biri - ulkan tarbiya o'chog'i ekanligi shunda namoyon bo'ladi. Oila o'z farzandlarini tarbiyalab, ularga

umuminsoniy qadriyatlarni singdirish bilan ularga boshlang'ich ijtimoiy yo'nalish beradi. O'z farzandalarini katta oqimga - jamiyatga qo'shish bilan esa oila jamiyat yo'nalishi, iqtisodiyoti, madaniyati va ma'rifatini ham belgilashga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Oila deganda ko'z o'ngimizda er-xotin o'rtasidagi ittifoq gavdalanadi. Bu ittifoq esa o'zaro ishonch, hurmat, mexr-muhabbat singari insoniy hislatlar bilan bog'langan bo'lsagina u mustaxkam «qo'rg'onga» aylanadi. Jamiyatimizda oila tushunchasi ulug'lanadi va er-xotinlikning muqaddasligi himoya qilinadi.

Er-xotinlik faqat qonuniy nikoh tufayligina tan olinadi. Bundan boshqasi axloqsizlik sanaladi. Bu tabiiy hol albatta. Chunki, qonun doirasida tuzilgan nikoh orqaligina er-xotinlar o'rtasida huquq va majburiyatlar paydo bo'ladi.

Din shaxs va uning atrofdagilarga bo'lgan munosabati shakllanishiga ta'sir etib, har tomonlama mukammal inson bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Din odamzotni hech qachon yomon yo'lga boshlamaydi. Din bu dunyoning o'tkinchi ekanini, oxiratni eslatib turadi, odam bolasini xushyor bo'lishga, harom yo'llardan uzoq yurishga, yaxshi bo'lishga, yaxshi iz qoldirishga undab turadi.

Ma'lumki, muqaddas dinimiz islomda, uning asosiy manbalari hisoblangan "Qur'oni Karim" va Hadislarda ham oilaviy turmushning va er-xotin munosabatlarining barcha tomonlari hakida qimmatli ma'lumotlar va shar'iy qonunlar yoritilgan. Qur'oni Karimning oyatida oiladagi er bilan xotinning o'rni belgilab berilgan. Shariat hukmicha, er avvalo oilaning barcha moliyaviy va ma'naviy taraflariga javobgar, uni chetdan bo'ladigan xar kandy xurujlardan himoya qiladigan shaxsdir.

Mana shulaming evaziga va erkak kishi uchun fazilat hisoblanmish og'ir-bosqlik, oila ro'zg'or tebratishdagi tadbirkorlik kabi sifatlar mavjudligi sababli u oilaning boshlig'i sanaladi. Yaxshi xotin esa diyonatli, urning uyini obod qiladigan va unga bir umr sadokatli bo'lgan ayoldir. Qur'oni Karimdan er-xotin yoxud oilaviy munosabatlarga xos ibratli misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Demak, oila mustahkamligini ta'minlashda, barkamol insonlarni voyaga yetkazishda, avvalo, shaxsning diniy yo'nalganligining ahamiyati katta. Zero, shaxsning diniy yo'nalganligi farzandlarning qanday diniy bilim olishiga, diniy qadriyatlarning oilada qanday o'rin tutishi va bajarilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Islom dini o'zbek xalqida odat shariat qonunlari bilan bir qatorda jamoa hayotini tartibga solishida muhim rol o'ynashini hisobga oladigan bo'lsak, mazkur omil katta ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. -T."Sano standandart"nashiriyoti. 2017.
2. J.Hasanboyev, X.A.To'raqulov, I.Sh.Alqarov, N.O'.Usmanov. PEDAGOGIKA (pedagogika nazariyasi va tarixi). Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Toshkent — «Noshir» — 2011.

3. Shuxratovich, Shirinov Feruzjon. "WEBSITE CREATION TECHNOLOGIES". INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS. 2.19 (2023): 57-63.
4. Shuxratovich, Shirinov Feruzjon. "COMPOSING AND SHAPING OF WEB TEXT". INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS. 2.19 (2023): 51-56.
5. Shuxratovich, Shirinov Feruzjon. "Technology for Working with Graphic Programs." Open Access Repository 9.12 (2022): 99-102.
6. Shukhratovich, Shirinov Feruzjon. "The Field of Computer Graphics and Its Importance, Role and Place in The Information Society." Texas Journal of Multidisciplinary Studies 4 (2022): 86-88.
7. Shuxratovich, Shirinov Feruzjon, Usmonova Gulnoza, and Azimova Madina. "TA'LIMDA SMART TEXNOLOGIYALARI." SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM 2.20 (2023): 129-133.
8. Shuxratovich, Shirinov Feruzjon, Abdullaeva Qizlarxon, and Usmonova Gulnoza. "BULUTLI TEXNOLOGIYALARNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI." SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM 2.20 (2023): 134-138.
9. Feruzjon, Shirinov, Akramov Azamatjon, and Abdullaeva Qizlarxon. "OMMAVIY ONLAYN OCHIQ KURSLAR." SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM 2.20 (2023): 125-128.
10. Meliqoziyevich, Siddiqov Ilhomjon, and Shirinov Feruzjon Shuhratovich. "USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGIES." Open Access Repository 9.6 (2023): 262-264.